

NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLAR TASNIFI HUSUSIDA

*G.M.Umarjonova, Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Oygul Jo‘rayeva, Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyo tilshunosligida frazeologizmlarning o‘rganilishi xususida fikrlar bildirilgan. Jumladan, nemis tilshunosligida frazeologizmlar o‘rganilishi hamda ularning tasnifiga xususidagi qarashlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Turli tillarning o‘z lug‘at boyligi mavjud bo‘lib, uning doimiy o‘zgarib borishi dunyo tilshunos olimlarining to‘xtovsiz diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu borada turli tillar kesimida ko‘plab qiyosiy va chog‘ishtirma tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi globallashuv sharoitida esa bu masala yanada dolzarblashdi. Chunki jahonning yuksak taraqqiy etgan ayrim tillari lug‘at fondi kundan-kunga yangi lug‘aviy birliklar bilan boyib bormoqda. Fan va texnikaning shiddatli rivoji hamda insoniyatning mislsiz tafakkur oqimi tufayli har daqiqada turli yangi tushuncha va ularni ifoda etuvchi lingvostrukturalar paydo bo‘lmoqda. Bizga ma‘lumki, har qanday yangilik yangi so‘z yoki iboralarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ushbu yangi so‘z, termin, atama va iboralar o‘z navbatida lingvistik tahlillar o‘tkazishni taqozo qiladi. Ma‘lumki, tilning lug‘at boyligi asosan ikki yo‘nalish imkoniyati natijasida boyib boradi: 1) tilning o‘z ichki imkoniyatlari orqali, ya‘ni tilning struktural-semantik xususiyatlari asosida, 2) tildan tashqari, ya‘ni ekstralingvistik jihatlari yordamida o‘zga tillardan so‘zlarni o‘zlashtirish orqalidir.

Tilning o‘z ichki imkoniyati, o‘ziga xos xususiyatlaridan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Dunyodagi har qanday tilning boyligi nafaqat leksik birliklardan, balki mavjud minglab turg‘un iboralardan tashkil topib, shu bilan

birga mazkur turg'un birikmalar ham til lug'at boyligining bir qismini tashkil qiladi.

Frazeologizmlar xususida o'tgan asrning ikkinchi yarmida dunyo tilshunoslari tomonidan bir qator fundamental ishlar olib borildi. Turli tillardagi frazeologik birliklar va ularning belgilari ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tavsiflangan, qator monografiya va dissertatsiyalar yaratilgan hamda bir, ikki yoki ko'p tillik frazeologik lug'atlar tuzilgan. Shu bilan birga, frazeologik iboralarning shakllanish jarayoni, ularning tildagi lug'at boyligini oshirishdagi ahamiyati hali-xanuzgacha alohida tadqiqqlarga tortilmagan. Shunga qaramay o'zbek tilida ba'zi kamchiliklar uchrab turadi, masalan, mavjud frazeologik birliklarning shakllanishi, ularning lug'at boyligida tutgan o'rni hamda semantik, grammatik va paradigmatic xususiyatlari yetarlicha tahlilga tortilmagan.

XX asr dunyo tilshunosligida frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar olib borgan ko'zga ko'ringan olimlaridan biri shveytsariyalik tilshunos, Sarbonna nomli Parij universiteti doktori Sharl Balli (1865-1947) bo'lib, u o'zining 1909-yilda nashr etilgan "Traité de stylistique française" – "Frantsuz tili stilistikasi" nomli asarida frazeologizmlar masalasiga alohida to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, struktural xususiyatlar frazeologizmlarning tashqi, semantik tabiati esa uning ichki belgisidir. Ammo uning asari, asosan, Rossiyada tadqiq qilinib, nemis va roman tilshunoslari bu taxminlardan foydalanmadilar, yarim asr mobaynida frazeologiyaga juda kam e'tibor qaratadilar. Frazeologiya atamasi olim Sh.Balli tomonidan "tegishli kombinatsiyalarni o'rganadigan stilistika bo'limi" [10, 392] ma'nosida paydo bo'ldi. U, shuningdek, frazeologiya nazariyasi asoschisi hisoblanib, birinchi navbatda, u stilistikaga tegishli darslikda frazeologiyaga oid bo'limni kiritdi. So'ngra, "Stilistika to'plamlari" va "Frantsuz tili stilistikasi" kitoblarida so'z birikmalarini tartibga solgan. Birinchi kitobida u to'rtta guruh haqida bayon qilgan:

- 1) "erkin so'z kombinatsiyasi, ya'ni barqarorlikdan mahrum kombinatsiyalar;
- 2) odat bo'lib qolgan kombinatsiyalar, ya'ni, ba'zi o'zgarishlarni tahminlaydigan komponentlarning nisbatan kamroq aloqasi bo'lgan iboralar;

3) frazeologik ketma-ketliklar, soʻz guruhlari. Xar xil ikki tushunchalar deyarli bir-biriga birlashtirilgan, mazkur birikmalar komponentlarning qayta tuzilishiga imkon beradi;

4) frazeologik birliklar oʻz mahnosini yoʻqotib qoʻyadigan kombinatsiyalar va bir noodatiy tushunchani ifodalaydi. Bunday kombinatsiyalar komponentlarning qayta tuzilishiga yoʻl qoʻymaydi” [10, 393].

Dunyo tilshunosligida frazeologiyaning turli masalalari koʻplab olim va tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish bilan oʻrganilgan. Lekin koʻp vaqtlar mobaynida bu birliklar til tizimida oʻz oʻrniga ega boʻlmadi. XX-asrning 40-yillariga kelib rus tilshunosligida ilk marotaba frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi sifatida paydo boʻlgan.

Frazeologiya atamasi koʻplab mualliflar tomonidan xilma-xil tavsiflangan. Xorijiy lugʻatlarda frazeologiya atamasi faqat “inhalteere Schönredneri und Neigung dazu” – “mantiqsiz soʻzamolik va unga boʻlgan moyillik” tarzidagi izohlar ham mavjud [7, 839]. Keyinchalik, “Großes Fremdwörterbuch” lugʻatida esa, “feste Wortverbindung, Redewendung” – “turgʻun iboralar, idiomalar” deb atalgan [5, 446]. Mashxur nemis tilshunos olimi Xarald Burger esa frazeologik birliklarni quyidagicha tavsiflaydi: “Idioma shakllanishiga izoh shart boʻlmagan umumiy atama siftida tushuniladi yoki ular faqat sintaktik va semantik qoidalarga asoslanmagan soʻzlar zanjiridir” - “solche Wortketten, deren Zustandekommen nicht oder nicht nur aufgrund von syntaktischen und semantischen Regeln erklärbar ist” [1, 145] deb yozadi.

“Frazeologiya” iborasi yunoncha “phrasis” – “ibora, ifoda, jumla”; “logos” – “soʻz, tushuncha” va “logia” – tahlil berish, yahni “iboralar haqidagi bilim” degan mahnolarni anglatadi. Bu xaqda XVI asrda R.Ekkert va X.Gyunterlar tomonidan yaratilgan “Die Phraseologie der russischen Sprache” [6, 412] nomli asarlarida batafsil yoritib oʻtilgan.

Tilshunos olim Georg Fridrix Zaylarning nemis tili frazeologiyasiga bagʻishlangan tadqiqotlarida nemis tilining frazeologik boyliklarini namoyish etish bilan birga “maqollar, matallar, turgʻun birikmalar, juftlashgan kombinatsiyalar,

shuningdek, ularning tilda vujudga kelish masalalari, ularning manbalari, struktur va semantik tahlil"[8] iga ham ehtibor qaratgan. Mazkur tadqiqotlarda olim eng boy faktik materiallardan tashqari, bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan bir qator umumlashtirilgan qimmatli nazariy fikrlarga tayangan holda maqollar tahrifini aniqlagan. G.F.Zaylarning tadqiqotlari frazeologizmlar, ularning kelib chiqishi va leksikografiya haqidagi muammolarni yoritib berishga qaratilgan.

Tea Shippan o'zining "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache" nomli kitobida frazeologik birliklarni "... die feste Einheiten aus mehr als aus einem Wort verstehen" – "bir so'zdan ko'proq tarkibga ega bo'lgan turg'un birliklar" deb tushuntiradi [9, 47-48]. Tilning frazeologik tuzilishining asosiy sohasi uning reproduksiyasi (der Re'rodution), turg'unligi (der Festigkeit), leksikallashuvi (der Lexikalisierung) va idiomalashuvi (der Idiomatizität) bilan ajralib turadi degan fikrlarni ilgari surgan. Olim frazeologiyani umumiy nom sifatida qo'llab, uning batafsil tasnifini ishlab chiqqan.

Frazeologiyaning mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanishida inson omili katta rolg' o'ynaydi. Qabul qiluvchi omil muloqotning muhim generativ elementi hisoblanadi. 1982-yilda Tsyurixda bir necha yil davom etgan tadqiqot loyihasi natijasida X.Burger, A.Buxofer, A.Sialmlarning "Frazeologiya qo'llanmasi" nashr etildi[2, 433]. Unda hozirgi kunga qadar o'zining qiziqarli jihatlarini yo'qotmagan tadqiqot masalalari shakllantirilgan. Bir-biridan mutlaqo mustaqil ravishda nashr etilgan V.Flaysherning "Zamonaviy nemis tili frazeologiyasi" [4, 250] va X.Burger, A.Buxofer, A.Sialm [2, 433] larning "Frazeologiya qo'llanmasi" asarlari o'rta asr tilshunosligida keng foydalanilgan bo'lib, unda turli xil frazeologik tushunchalar haqida bayon qilingan. V.Flaysher leksikologiya masalalariga ko'proq ehtibor qaratgan bo'lsa, Burger, Buxofer, Sialmlarning qo'llanmasida frazeologik birliklar ehtibor markazida bo'lgan.

V.Flaysher frazeologik birliklarning xususiyatlariga va tadqiqot usullariga qarab, tilning frazeologik tarkibini turli xil tasniflashni taklif qilgan. V.Flaysher leksema va idiomalarni frazeologiya shakllanishining asosiy mezonini deb baholaydi. Masalan, "Bausch und Bogen" – yaxlit, "kli' und klar" – "qisqa va aniq". U

FBlarning semantik va semantik-struktur barqarorligi, leksikallashuvi nutq va matn tayyorlashda leksik birlik xususiyatlarini ko'rsatuvchi asos deb hisoblaydi.

V.Flaysherning mazkur asari Germaniyada frazeologiyaga oid tadqiqotlarning keng miqyosda olib borilishiga sabab bo'ldi. 1980 yillar oxirlariga kelib, germaniyaliklar va boshqa mamlakatlardagi nemis tilida so'zlashuvchi kishilar frazeologiyaga oid tadqiqotlarda o'zaro yaqin ilmiy aloqalar o'rnatdilar. O'sha vaqtdan boshlab frazeologiyaga bo'lgan qiziqish jadal surhatlar bilan o'sib bordi va bu qiziqish samarasi o'laroq ko'plab ilmiy asarlar nashr ettirildi.

1983-yilda Mannxaym shahrida, 1987-yilda Tsyurixdagi bo'lib o'tgan konferentsiya frazeologiya sohasi rivojida umumiy nazariy masalalarning hal qilinishida katta rol o'ynadi. Slavyan va nemis tilshunoslari o'rtasidagi hamkorlikda bunday xalqaro konferentsiyalar ko'plab o'tkazildi va ularda aynan frazeologiyaga doir masalalar o'rtaga tashlandi. Bu kabi tadbirlar Yevropaning turli mamlakatlarida anhanaviy tarzda o'tkazilib kelishi bilan birga nemis va slavyan tilshunoslaridan tuzilgan institutlarni yaratish uchun asos bo'ldi. Aynan shunday tadbirlar ta'sirida 1999 yilda "Evropa frazeologiya jamiyati" tashkil etildi va faol ish olib bordi.

2003 yilda nemis tilshunosi X.Burger frazeologiya sohasiga yangi qarashlarni olib kirdi. 2006 yilda X.Burger boshchiligida yevropa tilshunos olimlari birgalikda yozgan "Tilshunoslik va kommunikatsiya fanlari bo'yicha qo'llanma" turkumidan yangi mazmundagi "Frazeologiya" nomli kitob chop etildi[2, 433]. Bu qo'llanmada Kristina Palm[3, 38-40] (1995) frazeologizmlarni tizim va jumlada alohida so'zlar (leksemalar) funktsiyasi va ma'nosini o'zida mujassam etgan tilning turg'un so'z birikmalarini o'rganuvchi fan deb tahriflaydi.

Ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklarning o'rganilishi turli aspektda olib borilgan. Bugungi kunda frazeologik birliklarning turli tizimli tillarda ifodalanishi, ularning mazmun, grammatik jihatdan, matndagi xususiyatlarini har tomonlama tadqiqi qilish muhim vazifalaridan biri. Binobarin, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni chog'ishtirib o'rganish har ikkala tillarning ichki strukturalarini aniqlashga, ikki tillik frazeologik lug'atlar yaratishga hamda

ularning tildagi imkoniyatlarini ochib berishda asosiy zamin bo‘lib hisoblanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burger H. Idiomatik des Deutschen. - Tübingen, 1973. S. 145.
2. Burger Harald / Annelies Buhofer / Ambros Sialm. Handbuch der Phraseologie. Verlag: Walter de Gruyter. Berlin, 1982. – S. 433.
3. Christine Palm. Phraseologie: eine Einführung. Tübingen: Narr, 1995: 38-40
4. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Verlag: Leipzig, 1982. - S. 250.
5. Großes Fremdwörterbuch. Verlag: Buch und Zeit Verlagsgesellschaft, Köln, 1991. – S. 446.
6. Günter H. / Eckert R. Die Phraseologie der russischen sprache. Langenschedet. Verlag Enzyklopädie. 1. Auflage. 1. Januar 1992. –S. 412.
7. Heyse Johann Christian. Allgemeines Verdeutschendes und erklärendes Fremdwörterbuch. Verlag: Siegfried Cronbach, - Berlin, 1879. S.839.
8. Seiler F. Deutsche Sprichwörterkunde, Handbuch d.dt. Unterrichts an höh. Schulen 4.3, München, 1922
9. Shippan Th. "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache". Verlag: Max Niemeyer. Tübingen, 1992. – S. 47-48.